

**Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya
fakultetida ertalabki darslar davlatimiz ramzi "Madhiya " sadolari ostida
boshlanganligi to'g'risida**

BAYONNOMASI

**2025-yil.7-mart kuni Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti faollar
zalida**

Qatnashdilar:Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti Yoshlar bilan
Ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev,professor-o'qituvchilari,fakultet
tyutorlar: O.Djumayeva, D.Hafizova,N.Farmonov,A.Nasriyev va fakultet magistr
va talabalari.

KUN TARTIBI:

O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari

ESHITILDI:

2025-yil 7-mart Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev so'zni ochib berdi. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matni va musiqasi O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 10-dekabrdagi 768-XII-sonli«O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qonuni bilan tasdiqlangan.O'zbekistonRespublikasining Davlat madhiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzidir.O'zbekistonRespublikasining Davlat madhiyasiga zo'r ehtirom bilan qarash O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir.

Majburiy ijro etish holatlari:

O'zbekiston Respublikasining „O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to'g'risida“gi qonuniga muvofiq madhiya quyidagi holatlarda ijro etilishi shart:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishganidan

Qasamyod qabulqilganidan

keyin;O'zbekistonRespublikasiOliyMajlisi Qonunchilik palatasiva O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati yalpi majlislarining ochilish va yopilishida





Bayonlashtirdi:

tyutor

O.E.Djumayeva

Buxoro davlat universiteti “Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiyasi” fakulteti talabalari bilan “Kino kuni”da "Mahmudxo'ja Behbudiy " deb nomlangan o'zbek kinosining namoyishi bo'lib o'tdi.

Bayonnomasi

Tadbir o'tkazilgan kun:30-yanvar 2025- yil

Tadbir o'tkazilgan joy: Fakultet faollar zalida

Tadbir tashkilotchilari: **Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya** fakulteti talabayoishlari hamda tyutorlari

Joriy yining 30-yanvar kuni Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultetining faollar zalida "Siyosiy qatag'on qurbonlarini yod etish haftaligi" munosabati bilan "**Mahmudxo'ja Behbudiy** " nomli kinofilm namoyish etildi .Bunda fakultet 1-kurs talabalari 2-1-Eko-24, 2-1-Agro-24 guruh va magistrilar ishtirok etdi.

Kinofilm namoyishidan maqsad: Talabalarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish hamda ularni kitobxonlik, ilm olish, Vatanni sevishga va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat.o'zbek filmi namoyish etildi.

«O'zbekkino» milliy agentligi tomonidan **Mahmudxo'ja Behbudiy** hayoti va faoliyati haqida badiiy film, asarlari asosida qisqa metrajli film yaratiladi. Shuningdek, mamlakatimiz oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida adib hayoti va ijodiga bag'ishlangan adabiy-badiiy tadbirlar, davra suhbatlari, ijodkorlar bilan uchrashuvlar uyushtiriladi.2019-yilning aprel oyida "**Mahmudxo'ja Behbudiy**" ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati» mavzusida ilmiy konferensiya hamda adib tavalludiga bag'ishlangan tantanali adabiy-badiiy kecha bo'lib o'tadi. Respublika teatrlarida adib asarlari asosida spektakllar sahnalashtiriladi.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xalqimizning



sevimli yozuvchisi **Mahmudxo'ja Behbudiy** tavalludini keng nishonlash to'g'risidagi farmoyishida yuqoridagi ishlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.



Fakultet tyutori:

O.E.Djumayeva

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutorlari va talabalar "Nasriddin Afandi festivali" doirasida BuxDU uchun ajratilgan maydonda amaliy va badiiy san'at ko'rgazma yarmarkasi hamda hajviy rasmlar ko'rik tanlovida talabalarning ishtirok etganligi to'g'risidagi

Bayonnomasi

Qatnashdilar :

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutorlari O.Djumayeva,D.Hafizova, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev, fakultet talabalari va magistr Zaribboyev Ma'rufjon

Eshitildi:

Joriy yilning 1-aprel kuni Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev,tyutorlar va talabalar "Nasriddin Afandi festivalida faol ishtirok etidilar. Buxoroda 1 aprel – kulgi va mutoyiba kuni munosabati bilan «Nasriddin afandi» festivali o'tkazildi. Mazkur quvnoq festival xalq og'zaki ijodi qahramonlari sanalgan Nasriddin Afandi, Mulla Mushfiqiy, Yortiquloq kabi donishmandlarning zukkolik, hozirjavoblik fazilatlarini targ'ib qilish, sayyohlarga Buxoroning turizm yo'nalishidagi imkoniyatlarini namoyish etish orqali xalqlar o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. Afandi festivali karvoni yurishi (marshi)da qatnashgan minglab aholi va ishtirokchilar «Ark» qo'rg'onidan «Labi Hovuz» majmuasiga bezatilgan manzilni bosib o'tishdi.

Festival tomoshalarining asosiy qismi Nodir Devonbegi madrasasi old maydoni hamda Xo'ja Nasriddin haykali o'rnatilgan bog' o'rtasida o'tkazildi. Festival Buxoro shahar hokimi Qurbon Tursunov hamda viloyat hokimi o'rinbosari Botir Shahriyorovlarning tabrik so'zi bilan ochildi. Bunda so'z san'ati ustalari, askiyachilar va yosh havaskorlar ijrosidagi ichakuzdi hangomalar, qo'shiqlar, teatrlashtirilgan tomoshalar xalqimizning betakror kulgu san'ati imkoniyatlari namoyishiga aylandi.«Nasriddin Afandi yoki Xo'ja Nasriddin XIII asrdan beri O'rta Osiyo, Yaqin Sharq, Xitoy, Kavkazorti va Bolqonda tarqalgan latifalar, rivoyatlar va ertaklardagi hajviy xarakterdir. Nasriddin Afandi haqiqatan ham mavjud bo'lgan yoki yo'qligi haqida hech qanday ma'lumot yo'q, ammo tarixchilar va yilnomachilar uning kelib chiqishining bir nechta manbalarini keltiradilar. Ulardan biriga ko'ra, Afandining vatani Buxoro, boshqasiga ko'ra, u umuman Xitoyda tug'ilgan. Ammo bularning barchasi ko'pgina mamlakatlarda uning sharafiga yodgorlik o'rnatilishiga xalaqit bermaydi. Shunga qaramasdan, Buxoro shahrining markaziy maydonidagi Labi-Hovuz ansamblida 1979 yilda o'rnatilgan Xo'ja Nasriddinning bronza haykali tengsiz va mashhur. Birgina haykalning o'zi har kuni, har daqiqada Buxoroning qadim atmosferasiga quvonch va kulgu bag'ishlab turadi», - dedi viloyat Madaniyat boshqarmasi boshlig'i Sherzod Tilavov.

Yurt tinchligi va osoyishtaligi shu yerda yashayotgan xalqning sof niyati hamda o‘zaro hamjihatligiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Yurtimizda yashayotgan turli millat va elatlarning farovon hayotini ta‘minlashda davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro minbarlarda baralla yangragan “ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik”ka chaqiriq butun dunyoda e‘tirof etildi. Bu tashabbus Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi. Mamlakatimizda milliy liboslar targ‘ibotini kuchaytirish, yosh avlod ongiga millat ruhiyatini singdirish, ular hayotiga o‘zbekona mentalitet me‘yorlarini olib kirish hamda milliy liboslarga mehr uyg‘otish maqsadida turli xil milliy liboslar festivali va shu ko‘rinishdagi tadbirlarning tashkil etilayotganligi ham bejiz emas.





Bayonlashtiradi:

tyutor:D.Hafizova

**Buxoro davlat Universitetining Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultetida
talabalar taqdirlanganligi to'g'risida
BAYONNOMA**

Buxoro tumani

11.03.2025-yil

Qatnashdilar: Buxoro davlat Universitetining Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti dekani A.A.Qodirov, Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti yoshlar masalalari bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Barakayev.I.R , Agronomiya va tuproqshunoslik kafedra mudiri Umarov.O.R, biotexnologiya va oziq ovqat xavfsizligi kafedra mudiri Yo`ldoshev.L, fakultet tyutorlari Djumayeva Ozoda, Hafizova.D, Nasriyev.A,Farmonov.N va fakultet magistr va talabalari

Eshitildi

Joriy yilning 11-mart kuni Buxoro davlat Universitetining Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti dekani A.A.Qodirov va Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev, Agronomiya va tuproqshunoslik kafedra mudiri Umarov.O.R, biotexnologiya va oziq ovqat xavfsizligi kafedra mudiri Yo`ldoshev.L tomonidan "Yoshlar Korrupsiyaga yo'q deydi" mavzusida o'tkazilgan tanlovda faol qatnashib, faxrli o'rinlarni egallagan talabalar faxriy yorliq va estalik sovg`alar bilan taqdirlandilar.



Bayonlashtirdi:

O.E.Djumayeva

**Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultetida
Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan tashkil etilgan Zakovat
intellektual o'yini tashkil qilinganligi to'g'risidagi**

BAYONNOMASI

Buxoro tumani

05.03.2025 yil

KUN TARTIBI:

Buxoro davlat universiteti talabalari orasida Intellektual salohiyatini oshirish hamda faol va iqtidorli talabalar bazasini shakllantirish

ESHITILDI:

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultetida "Zakovat" intellektual o'yinining "Dekan kubogi" musobaqalari bo'lib o'tdi. Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiyalar fakultetida Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan "Zakovat" intellektual o'yinining navbatdagi soni o'tkazildi. Buxoro davlat universiteti talabalari orasida Intellektual salohiyatini oshirish hamda faol va iqtidorli talabalar bazasini shakllantirish maqsadida Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan "Zakovat" intellektual o'yini tashkil qilindi. "Zakovat" intellektual o'yinini talabalar o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash maqsadida Buxoro davlat universitetida Zakovat intellektual o'yinining navbatdagi soni o'tkazildi. O'yin ko'tarinki ruhda, savollarni darajasi yuqori edi. O'yinda 6 ta jamoa jamoa ishtirok etdi. O'yinni Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi intellektual loyihalar koordinatori N.Amonov olib bordi.

QAROR QILINDI:

1. Buxoro davlat universiteti talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qolaversa, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish maqsadida Zakovat intellektual o'yinlari muntazam tashkil etilsin.
2. Zakovat intellektual o'yinini tashkil etish Buxoro davlat universiteti yoshlar kengashi Intellektual loyihalatli

koordinatoriga

yuklatilsin.



Bayonlashtirdi:

O.E.Djumayeva

**Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti
talabalari bilan
"Sohibqiron Amir Temur -faxrimiz, g'ururimiz" nomli ma'naviy-ma'rifiy
tadbir
Bayonnomasi**

08.04.2025-yil.

Buxoro tumani

Qatnashdilar:

Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev, tyutorlar O.E Djumayeva, D.Hafizova, A. Nasriyev, N.Farmonov, hamda magistr Zaribboyev Ma'rufjon va talabalar.

Joriy yilning 8 -aprel kuni Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultetida Amir Temur tavalludi 689 yilligi munosabati bilan "Sohibqiron Amir Temur -faxrimiz, g'ururimiz" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Buyuk tarixiy shaxs Amir Temurning hayoti va merosiga bag'ishlangan bir qator tadbirlar, taqdimotlar, konferensiyalar yoki madaniy tadbir bo'lishi mumkin. Davra suhbatida, asosan, Amir Temurning jangovar mahorati, davlat boshqaruvidagi yutuqlari va dunyo tarixiga qo'shgan ulkan hissasi taqdim etiladi.

Amir Temur (Eski turkcha: امير تيمور – Amir Temur) (1336-yil 9-aprel, 1405-yil 18-fevral) – o'rta asrlarning buyuk turkiy askari va qo'mondoni, Temuriylar imperiyasi asoschisi, Oltin O'rda, Mamluk sultonligi, Dehli sultonligi, Usmonlilar davlati, Kavkaz va Eron davlatlarni yengishi ortidan musulmon olamining to'la yetakchisi, yeri 4,4 mln km² ga yetishgan 14-yuzyillik eng kuchli davlat quruvchisi, 35 yillik boshqaruvi va yurishlari chog'ida biror urushni yutqazmagan qo'shinboshi, o'tmishda ko'rilgan uchta buyuk harbiy-taktik urush va yurish qo'mondonlaridan biri

Tadbirning maqsadi:

- Amir Temurning hayoti va faoliyatini yoritish, uning davlat tuzilishini va jangovar strategiyasini o'rganish.
- Temuriylar sulolasining madaniy va ilmiy yutuqlarini namoyish etish.
- O'zbekiston tarixiga, ayniqsa Amir Temur davriga bo'lgan qiziqishni oshirish.
- Yangi avlodga Amir Temurning merosini tanitish va unga hurmat ko'rsatish.

Tadbirda amalga oshiriladigan faoliyatlar:

- **Prezentatsiyalar va ma'ruzalar:** Amir Temur va uning davriga oid ilmiy izlanishlar haqida so'z yuritish, tarixiy faktlar va tarixiy manbalar tahlil qilinadi.
- **Teatr sahnalari:** Amir Temurning hayotidan sahnalar, uning yirik janglari, davlat boshqaruvi va ilm-fan bilan bog'liq voqealar aks ettiriladi.
- **Exponatlar:** Amir Temur davriga oid hujjatlar, yodgorliklar va madaniy yodgorliklar namoyish etiladi.
- **Kitob va ilmiy nashrlar taqdimoti:** Amir Temur va uning davri haqidagi ilmiy kitoblar, maqolalar va nashrlar tanishtiriladi.



Xulosa: Tadbir orqali Amir Temurning madaniyat va tarixga qo‘shgan hissasini e‘tirof etish, uni o‘rganish va yoshlarni uni o‘rganishga undash maqsad qilinadi. "Hurlik Quyoshi" atamasi, Amir Temur haqidagi tasavvurni, uning markaziy o‘rni va tarixi yorqinligini ifodalaydi.



Bu tadbirni o‘tkazish, Amir Temurning haqiqiy merosini anglashga va kelajak avlodlarga tarixiy yodgorliklarni yetkazishga katta hissa qo‘shadi.

Bayonlashtirdi:



D.Hafizova

Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti talabalari bilan Kitobsevar millat umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish, talaba yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish maqsadida o'tkazilgan davra suhbat

Bayonnomasi

04.03.2025-yil.

ARM binosi

Qatnashdilar:

Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti talabalari hamda, tyutorlar O.E Djumayeva, D.Hafizova, A. Nasriyev, N.Farmonov, Sh.Haqberdiyev Joriy yilning 4-mart kuni Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutorlari,ARM mutaxassis xodimlari tomonidan Oliy ta'lim,fan va innovatsiyalar vazirligining 122-sonli buyrug'i asosida Ma'rifat soatlarida talabalar o'qishi kerak bo'lgan 100 ta kitob ro'yxatida mavjud bo'lgan Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asari taqdimoti o'tkazildi hamda talabalar bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ARMda mavjud bo'lgan bo'lgan badiiy adabiyotlar,gazeta -jurnallarning taqdimoti o'tkazildi. Talabalar bilan kitobxonlik tadbirlari esa nafaqat bilim olishga, balki ijodiy fikrlashga, muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu kabi uchrashuvlar davomida talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishni o'rganadilar, kitobdagi qahramonlar hayoti va ularning qarorlarini tahlil qilish orqali o'zlariga ibrat olishadi. Talabalar bilan birga muhokama qilingan asarlar orqali talabalar adolat, burch va insoniylik kabi mavzularda chuqurroq mulohaza yuritadilar. Bunday kitoblar hayotning murakkab tomonlarini ochib beradi. Kitobxonlik nafaqat bilim olish uchun, balki ichki dunyoni boyitish, o'zligingizni anglash va jamiyatga foydali inson bo'lish yo'lida mustahkam asos bo'ladi.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. Shu bois azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilmu odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan.

Kitob umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st. Insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo'q. Shu bois azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilmu odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan. Kitob mutolaasi esa kishida shunday chin insoniy fazilatlarni shakllantirib, uni hayotda o'z o'rnini topishga, jamiyatning chinakam a'zosiga aylanishida, dunyoqarashini kengaytirishda beqiyos ahamiyatga ega. Zero buyuk bobokalonimiz,

soʻz mulkingning sultoni Alisher Navoiy hazratlari taʼkidlaganlaridek kitob – beminnat ustoz, bilim va maʼnaviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbaidir.



Bayonlashtirdi

Djumayeva.O.